

TABIIY TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR: TAHLIL VA BARTARAF ETISH MUAMMOLARI

Ismatullayev Asrorjon Xikmatilloevich:

*Rishton Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya : Ushbu tezisda tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlarning asosiy turlari, ularning yuzaga kelish sabablari hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yoritilgan. Zilzila, sel, qurg'oqchilik, yer ko'chishi kabi ofatlar O'zbekistonda va butun dunyoda aholi salomatligi, infratuzilma va taraqqiyotga katta xavf tug'dirmoqda. Tezisdan mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari, xalqaro tajriba asosida taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Favqulodda vaziyat, tabiiy ofat, xavf, zilzila, sel, qurg'oqchilik, xavfsizlik, boshqaruv, xabardorlik.

Hozirgi davrda dunyo bo'ylab tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlarning soni va talofat darajasi sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunday favqulodda holatlar asosan tabiiy geologik, gidrometeorologik va ekologik omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ularning eng ko'p uchraydigan shakllari — zilzila, sel, yer ko'chishi, qurg'oqchilik, dovul, kuchli yomg'ir, qor ko'chkisi va o'rmon yong'inlari hisoblanadi. Bu ofatlar nafaqat inson hayoti va salomatligiga tahdid soladi, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga, infratuzilma va atrof-muhitga ham katta zarar yetkazadi.

O'zbekiston tabiiy-geografik sharoiti jihatidan bir nechta favqulodda holatlarga xavfli zonaga kiradi. Jumladan, mamlakatning katta hududi — Farg'ona vodiysi, Toshkent, Andijon, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari — yuqori seysmik zona hisoblanadi. Ushbu hududlarda o'tkir zilzila xavfi mavjud. 1966-yilgi Toshkent zilzilasi bu xavf qanchalik talofatli bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, har yili bahor mavsumida tog' oldi hududlarda sel va suv toshqinlari yuz beradi. Bu holatlar, odatda, qor erishi yoki kuchli yog'ingarchilik natijasida yuzaga keladi. Qurg'oqchilik esa, ayniqsa, cho'l va yarim cho'l hududlarida — Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlarida suv resurslarining tanqisligi va hosildorlikning pasayishiga olib kelmoqda.

Bu ofatlarning asosiy sabablari orasida global iqlim o'zgarishi, tabiat resurslaridan noto'g'ri foydalanish, ekologik muvozanatning buzilishi, yong'inlar va inson faoliyati natijasida tabiiy xavfli hududlarda yashash holatlarining ortib borishi bor. Bundan tashqari, qurilish me'yorlariga rioya qilmaslik, xavfli zonalarda noto'g'ri joylashgan infratuzilmalar va aholi punktlari ham tabiiy ofatlar oqibatlarini kuchaytiradi.

Muammo shundaki, aholining favqulodda holatlarga tayyorgarligi yetarli darajada emas. Ko'pchilik favqulodda holatlarda qanday harakat qilish kerakligini bilmaydi, evakuatsiya rejalari mavjud bo'lsa ham amalda ishlamaydi. Ogohlantirish tizimlarining yetarlicha avtomatlashtirilmaganligi, axborot uzatishning sustligi, tibbiy xizmatlarning zudlik bilan yordam ko'rsatish salohiyatining pastligi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashishda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish zarur:

Monitoring va erta ogohlantirish tizimlarini takomillashtirish – zamonaviy texnologiyalar, sun'iy yo'ldosh kuzatuvlari va meteorologik tahlillar asosida xavfni oldindan aniqlash va aholini tez ogohlantirish imkonini beradi.

Qonunchilik va rejalashtirish asoslarini mustahkamlash – tabiiy ofatlar xavfi yuqori bo'lgan hududlarda qurilish me'yorlariga qat'iy rioya etish, xavf zonalarini xaritalash, infratuzilmani xavfsizlashtirish zarur.

Tibbiy xizmatlar va qutqaruv brigadalarini mustahkamlash – shoshilinch tibbiy yordam, psixologik yordamlashish va logistika tizimlari favqulodda holatlarda muhim o'rin tutadi.

Aholi xabardorligini oshirish va tayyorgarlik mashg'ulotlari – har bir fuqaro favqulodda holatda qanday harakat qilishni bilishi lozim. Buning uchun doimiy treninglar, mashg'ulotlar, maktab va oliy ta'limda maxsus darslar joriy qilinishi kerak.

Xalqaro tajribani o'rganish va qo'llash – Yaponiyaning zilzilalarga qarshi kurash tizimi, AQShning FEMA agentligi, Yevropa Ittifoqining ko'p bosqichli xavfli ofatlar boshqaruvi O'zbekiston sharoitida ham qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlar insoniyat uchun doimiy xavf omili hisoblanadi. Ular bilan kurashish, ularning oqibatlarini minimallashtirish va ularni bartaraf etish davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikning ajralmas qismidir. O'zbekiston Respublikasi uchun bu yo'nalish bo'yicha huquqiy asoslar mavjud, ammo ularni amaliyotda to'liq tatbiq etish, texnik imkoniyatlarni kengaytirish, aholining tayyorgarlik darajasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur. Faqat tizimli va barqaror chora-tadbirlar orqali tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va ularning salbiy ta'sirini yumshatish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi "Favqulodda vaziyatlar to'g'risida"gi Qonuni. (1999).
 UNDRR. (2022). *Global Assessment Report on Disaster Risk Reduction*. Geneva.
 World Health Organization (WHO). (2019). *Emergency Response Framework* (3rd ed.). Geneva.
 FEMA. (2016). *National Response Framework*. Washington D.C.: U.S. Department of Homeland Security.

- IFRC. (2022). *World Disasters Report*. International Federation of Red Cross and Red Crescent Societies.
- Mamatqulov B.R., Ergashev U.A. (2021). *Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish asoslari*. Toshkent: TTA.
- Karimova N.Z. (2022). "Tabiiy ofatlarning oqibatlari va ularni bartaraf etish". *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, №4.
- UNDP Uzbekistan. (2021). *Climate Risk and Early Warning Systems for Uzbekistan*. Tashkent.
- FVV rasmiy sayti: <https://www.fvv.uz>
- Nishonov D.M., Kobilova G.S. (2022). *Zamonaviy favqulodda vaziyatlar strategiyasi*. Samarqand: SamDCHTI.